
Yoshlar oyligi doirasida madaniy-ma'rifiy tadbir va konsert dasturi o'tkazildi
Rishton tumanida yoshlar oyligi doirasida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori
ostida madaniy-ma'rifiy tadbir va konsert dasturi o'tkazildi.

Joriy yilning 3 iyun kundan yurtimizda yoshlar oyligi boshlandi. Mazkur oylik doirasida qator loyihalar, intellektual tanlovlar, uchrashuvlar, sport musobaqalari hamda gala konsertlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Rishton tumanida ham yoshlar oyligi doirasida konsert dasturlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, ijodiy uchrashuvlar, sport musobaqalari ko'tarinki ruhda tashkil etilmoqda.

Tuman istirohat bog'ida tashkillangan bugungi konsert dasturi davomida taniqli so'z ustasi Valijon Shamsiyev, "Layli va Majnun" guruhi hamda taniqli san'atkorlar, estrada xonandalari, el ardog'idagi ijodkorlar o'zlarining chiqishlari bilan barchaga bayramona kayfiyat ulashdi.

2023-06-06 18:21:31